



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 446 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	191
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	196
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	200
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	205
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	210
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	216
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	220
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	223
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	226
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	229
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	233
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	237
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	240
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	248
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	251
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	259
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	264
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	269
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	273
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	279
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	283
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	286



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinov</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	357
<i>Gafforova Sarvinov Asrorovna</i>	
Chap qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
Djuxonova Noxida Xayotjonovna	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari	388
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar	395
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	401
Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
Kamola U. Mirzayeva	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari	419
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
Nabiyeva Aziza Komil qizi	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari	429
Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi	434
Xudaykulova Saida Zakirovna	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
Karimov Dostonjon Karimovich	



IMOM G'AZZOLIYNING FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIKAGA JORIY ETISH SHART-SHAROITLARI

Nabiyeva Aziza Komil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Orcid:0009-0005-0656-5605

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Abu Homid G'azzoliyning (1058–1111) farzand tarbiyasiga oid pedagogik qarashlarini zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etishning shart-sharoitlari va mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqola doirasida G'azzoliy merosining maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimlariga integratsiyalashuvi bosqichlari, tatbiq etishning amaliy shakllari, o'quv qo'llanmalari, modulli dasturlar, interaktiv metodlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Imom G'azzoliy, farzand tarbiyasi, zamonaviy pedagogika, axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy kamolot, ta'lim tizimi, interaktiv metodlar.

Abstract: This article analyzes the conditions and mechanisms for implementing the pedagogical views of Imam Abu Hamid Al-Ghazali (1058–1111) on child upbringing within the modern education system. The study examines the stages of integrating Al-Ghazali's educational heritage into preschool, general secondary, and higher education institutions, as well as practical forms of implementation, including educational manuals, modular programs, interactive teaching methods, and spiritual-enlightenment activities.

Key words: Imam Al-Ghazali, child upbringing, modern pedagogy, moral education, spiritual and moral development, education system, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются условия и механизмы внедрения педагогических взглядов Имама Абу Хамида аль-Газали (1058–1111) на воспитание детей в современную систему образования. В рамках исследования рассматриваются этапы интеграции педагогического наследия аль-Газали в систему дошкольного, общего среднего и высшего образования, а также практические формы его реализации, включая учебные пособия, модульные программы, интерактивные методы обучения и духовно-просветительские мероприятия.

Ключевые слова: Имам аль-Газали, воспитание детей, современная педагогика, нравственное воспитание, духовно-нравственное развитие, система образования, интерактивные методы.

KIRISH

Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etishda bir qator muhim shart-sharoitlar va yo'nalishlarni yoritish mumkin. Bu yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

G'azzoliy asosan axloq-odob, ma'naviy tarbiya, insonning qalb go'zalligi va pokligiga alohida urg'u beradi. Uning asarlarida insonning tug'ilishidan to'vafotigacha to'g'ri yo'lda bo'lishi, hayoti davomida xatolarga yo'l qo'ygan taqdirda ularning xatoligini anglab yetishi, undan xulosa chiqarishi va shu xatolarni qayta takrorlamasligi zarurligi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, nafsni poklash, nafsni tarbiya qilish, halollik va sabr kabi fazilatlar keng yoritilgan. Bu g'oyalar globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy inqirozdan himoya qilish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, vijdon va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etishda, avvalo, uning asarlaridagi ta'limiy, tarbiyaviy hamda ma'naviy-axloqiy qarashlar o'rganib chiqiladi, so'ngra bu qarashlar maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani kuchaytirish, dars jarayoniga ma'naviy qadriyatlarni integratsiya qilishda keng tatbiq etiladi.

G'azzoliy tarbiyada, eng avvalo, axloq va qalb pokligiga e'tibor qaratadi. Zamonaviy pedagogikada bu ta'lim muassasalarida ma'naviy muhit yaratishda, ya'ni tarbiya darslarida G'azzoliy qarashlaridan keng foydalanish, uning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirib berish orqali ularda insoniylik tuyg'ularini shakllantirish, kelajak avlodga G'azzoliy shaxsi va uning boy merosi haqida ma'lumot berish hamda o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishida G'azzoliy asarlari, uning farzand tarbiyasiga oid qarashlari o'rganib chiqildi va ularni bugungi zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish mexanizmlari ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G'azzoliy pedagogik merosini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Islom olamida buyuk nazariyotchi va mohir mudarris sifatida tanilgan Imom G'azzoliy asarlari uzoq vaqt davomida yetarli darajada o'rganilmagan. Ammo e'tirof etish lozimki, keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan Imom G'azzoliyning 10 ga yaqin asari o'zbek tiliga tarjima qilindi. To'g'ri, Imom G'azzoliy asarlarini o'rganish va ularni tarjima qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki mutafakkirning shaxsi buyuk, uning asarlari esa yuksak diniy va dunyoviy saviyada yozilgan.

Mumtoz merosimizni tadqiq etishda o'zbekistonlik olimlardan Abdulla Sher, Mamatqul Hazratqulov, Nematulloh Ibrohimov, Abdulaziz Mansurov, Ziyodullo Munavvarov va Islomjon Qosimovlarning tarixiy hamda falsafiy tadqiqotlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishda Imom G'azzoliyning "Ey farzand", "Ihyo ulum ad-din", "Mukoshafatul-qulub", "Kimyoi saodat", "Til ofatlari" nomli asarlari tahlil qilindi. Tahlil natijasida G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari hamda ularni bugungi zamonaviy pedagogikaga joriy etish usullari o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodlari sifatida G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid asarlari, falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlili, tarixiy-pedagogik tahlil, nazariy-qiyosiy tahlil, anketa, suhbat, intervyu, pedagogik kuzatuv va tajriba metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Imom Abu Homid G'azzoliyning qarashlarini ta'lim tizimiga joriy etish izchil, bosqichma-bosqich tashkil etiladigan pedagogik jarayonni talab etadi. Quyida bu jarayonning asosiy bosqichlari keltiriladi:

1. Tahliliy-tayyorlov bosqichi.

Bu bosqichda: G'azzoliy asarlarining mazmuni chuqur o'rganiladi, ularning pedagogik g'oyalari ajratib olinadi va zamonaviy ta'lim talablariga mos jihatlari aniqlanadi. Natijada nazariy asos yaratiladi.

2. Maqsad va vazifalarni belgilash bosqichi.

Ta'lim tizimida G'azzoliy qarashlarining joriy etishdan ko'zlangan maqsad aniqlanadi, tarbiyaviy, didaktik va rivojlantiruvchi vazifalar belgilanadi. Natijada aniq yo'nalish va konsepsiya shakllanadi.

3. Mazmuni moslashtirish bosqichi.

O'quv dasturlari va darsliklarga G'azzoliy g'oyalari integratsiya qilinadi, axloqiy-tarbiyaviy mavzular boyitiladi, fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi. Natijada yangilangan o'quv mazmuni yuzaga keladi.

4. Metod va texnologiyalar ishlab chiqish bosqichi.

Interfaol metodlar (munozara, muammoli vaziyat, keys-stadi) tanlanadi, G'azzoliy qarashlariga mos tarbiyaviy usullar ishlab chiqiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada samarali o'qitish metodikasi yaratiladi.

5. Amaliy joriy etish bosqichi.

Dars jarayonida qo'llash, sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda foydalanish, tajriba-sinov ishlarini olib borish. Natijada nazariya amaliyotga tatbiq etiladi.

6. Monitoring va baholash bosqichi.

O'quvchilarning bilim, axloqiy sifatleri va kompetensiyalari baholanadi, natijalar tahlil qilinadi, kamchiliklar belgilanadi va so'ngida samaradorlik darajasi aniqlanadi.



7. Takomillashtirish bosqichi.

Aniqlangan muammolar asosida metodika qayta ko'rib chiqiladi, yangi yondashuv joriy etiladi, ilg'or tajribalar ommalashtiriladi va tizim uzluksiz rivojlanadi. G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarining pedagogik ahamiyati nomli magistrlik dissertatsiyasida G'azzoliy qarashlarini hozirgi zamonaviy ta'limga tatbiq etish orqali yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ajdodlar merosiga hurmat, axloqiy fazilatlarini singdirish va milliy ruhda tarbiya qilish mumkin. Shu sababdan uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichiga, ya'ni maktabgacha ta'lim tizimiga tatbiq etamiz.

Imom G'azzoliy qarashlarini hozirgi zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etish tahlildan boshlab takomillashtirishgacha bo'lgan uzluksiz jarayon bo'lib, u ta'limni ma'naviy boyitish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Imom G'azzoliyning tarbiyaviy merosi zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimiga mos holda tizimli va samarali joriy etiladi. Bu esa bolalarda nafaqat bilim, balki yuksak axloqiy fazilatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Imom G'azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun o'quv qo'llanma shaklida ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarni amalga oshiramiz:

Birinchidan, qo'llanmani yaratishda G'azzoliy asarlarini to'plash va tarbiyaviy, axloq va bolaga munosabat haqidagi qarashlarni o'rganish, uning pedagogik g'oyalarini zamonaviy maktabgacha ta'lim talablari bilan solishtirish, asosiy tamoyillarini ajratib olish (axloqiy poklik, mehr-shafqat, bosqichma-bosqich tarbiya) va qo'llanma uchun nazariy asos yaratish.

Ikkinchidan, maqsad va vazifalarni belgilab olgan holda, bolalarning axloqiy rivojlanishini ta'minlash, individual yondashuvni shakllantirish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish.

Uchinchidan, mazmuni tanlash va tuzish orqali G'azzoliy qarashlari asosida mavzularni shakllantirish: bola qalbini "pok varaq" sifatida talqin qilish, yaxshi odatlarni erta shakllantirish, ota-ona va ustoz mas'uliyati. Shuningdek, har bir mavzuni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish.

To'rtinchidan, qo'llanmaning metodik tizimini ishlab chiqish va ta'lim usullarini aniqlash: suhbat va hikoya usuli, o'yin orqali tarbiya, namuna ko'rsatish. Mashg'ulotlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish, amaliy mashqlar, vaziyatli topshiriqlar yaratish.

Beshinchidan, tarbiyaviy hikoyalar, rivoyatlar va misollarni kiritish, rasmlar, jadvallar va sxemalar ishlab chiqish hamda tarbiyachilar uchun qo'llanma, bolalar uchun faoliyat materiallarini yaratish.

Oltinchidan, tajriba-sinov o'tkazish orqali qo'llanmani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sinovdan o'tkazish, ustozlar fikr-mulohazalarini yig'ish, kamchiliklarni aniqlash va tuzatish.

Yettinchidan, tajriba-sinov natijasidan olingan fikr-mulohazalarni tahlil qilish, kamchiliklarni tuzatish va takomillashtirish. Qo'llanmani ilmiy-metodik jihatdan qayta ko'rib chiqish, til, uslub va mazmuni takomillashtirish, davlat ta'lim standartlariga moslashtirish.

Sakkizinchidan, qo'llanmani amaliyotga joriy etish, ustozlar uchun seminar va treninglar o'tkazish, natijalarni monitoring qilish va samaradorligini baholash.

Bu dastur orqali maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun kichik yoshdagi bolalarni G'azzoliy qarashlari asosida tarbiyalash, ularga ajdodlar merosini o'rgatish, axloqiy qadriyatlarni singdirish mumkin bo'ladi. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga mos ravishda bu qo'llanma amalga oshiriladi. Bu qarorda quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, keng dunyoqarashli fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash.

Keyin amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyiha maktab o'quvchilari uchun Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Kelajak soatlari" tarkibiga kiritish uchun o'quv dasturidir. Bu dastur ham G'azzoliy qarashlari asosida umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, yuksak milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dastur hisoblanadi. Bu dastur 5-11-sinflarni qamrab oladi va davomiyligi 1 o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, oyiga 1 marotaba G'azzoliy merosi, uning axloqiy qarashlari haqida "Kelajak soatlari" darslari tashkil qilinadi.

Asosan, dastur o'quvchilarda Imom G'azzoliy ta'limoti asosida axloqiy fazilatlarni shakllantirish, to'g'ri xulq-atvorni rivojlantirish, ma'naviy ong va tafakkurni yuksaltirish kabi jarayonlarga qaratilgan. Shuningdek, G'azzoliy asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalarni o'rganish, o'quvchilarda halollik, sabr, odob, ilmga intilish fazilatlarini rivojlantirish, oiladagi va jamiyatdagi mas'uliyatni anglatish, salbiy odatlardan himoyalanih ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quv dasturning mazmuni quyidagi modullarni o'z ichiga oladi:

1-modul: Imom Abu Homid G'azzoliyning shaxsi va uning inson kamoloti haqidagi tarbiyaviy qarashlari.

2-modul: Imom G'azzoliyning asarlari va tarbiyaviy qarashlari asosida axloqiy fazilatlarni shakllantirish (halollik, poklik, sabr, shukr, kamtarlik, tavoze va rostgo'ylik).

3-modul: Ustoz va shogird munosabati hamda ilm olishning ahamiyati (G'azzoliy merosi asosida).

4-modul: G'azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarining pedagogik ahamiyati va oilaviy munosabatlar.

5-modul: Salbiy illatlardan saqlanish: dangasalik va vaqtni behuda sarflash haqida.

6-modul: Imom G'azzoliyning insonni kamol toptirishdagi axloqiy qarashlarini hozirgi zamonaviy hayotga tatbiq etish.

Bu dasturni qo'llash mobaynida turli xil interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Bular: suhbat va munozara, case-study, rolli o'yinlar, klaster, INSERT, BBB texnologiyasi, aqliy hujum, T-jadvali, SWOT tahlil va boshqalar.

O'quvchilarning xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlar, munozaradagi faolligi, mustaqil fikr bildirishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi ustozlar tomonidan tekshiriladi va ijobiy o'zgarishlar qayd qilinib, taqqoslab boriladi. O'quvchilar modullarni o'rganish davomida axloqiy qadriyatlarni anglaydi, to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Imom G'azzoliy qarashlarini zamonaviy pedagogikaga tatbiq etishda biz ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ham foydalanishimiz mumkin. Bunday tadbirlar orqali ham o'quvchilar ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, ularga G'azzoliy axloqiy qarashlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishimiz mumkin bo'ladi va o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ma'naviy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlari, sahna ko'rinishlari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, Imom G'azzoliy ta'limotini yoshlar ongiga singdirish, farzand tarbiyasida ota-ona va ustoz munosabatlarini tushuntirish mumkin bo'ladi. Bunda slayd va prezentatsiyalar, G'azzoliy hikmatlari yozilgan plakatlari, sahna uchun dekoratsiyalar hamda kitoblardan foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda, tadbirda buyuk alloma Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari, uning hayoti va ilmiy merosi haqida keng ma'lumotlar beriladi. G'azzoliy hazratlarining ta'limotida inson kamolotida tarbiya, ayniqsa bolalik davridagi tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi, ilmning ahamiyati va ilmni yoshlik chog'idan boshlab o'rganishning muhimligi haqidagi fikrlar bildiriladi.

Tadbir o'quvchilar tomonidan G'azzoliy hayotidan qisqacha lavhalarni sahnalashtirish, G'azzoliyning axloqiy qarashlari haqida ibratli fikrlar bildirish hamda G'azzoliy hayoti va ijodi haqida savol-javoblardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

O'quvchilarga G'azzoliyning hayotiy faoliyati, ilmiy merosi va axloqiy qarashlari haqida savollar berish orqali ularning bilim darajasi tekshirib ko'riladi va mavzuga doir she'rlar hamda qisqa hikoyalar o'quvchilar tomonidan ommaga taqdim etiladi.

Tadbirda shuni xulosa qilish mumkinki, buyuk ajdodlarimizning hayot yo'li, ularning ma'naviy boy merosi va axloqiy qarashlari bugungi yoshlarimiz uchun muhim dasturilamal hisoblanadi. Shuningdek, ular yoshlar tarbiyasining kelajak poydevoridir. G'azzoliy qarashlari asosida o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar shakllanadi, G'azzoliy merosiga o'quvchi-yoshlarimizning qiziqishi ortadi va tarbiya masalasiga ongli yondashuv rivojlanadi. Shu bilan birgalikda, tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilarimizga alohida minnatdorchilik bildiriladi va ular taqdirlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan birgalikda badiiy-tarbiyaviy, intellektual, ijodiy va amaliy-tarbiyaviy tadbirlar ham tashkil etish mumkin.

Imom G'azzoliy qarashlari asosida ma'naviy-axloqiy tafakkurni rivojlantirishni "Zakovat" intellektual o'yinlari orqali ham amalga oshirish mumkin. O'quvchilarga Imom G'azzoliy ta'limotini qiziqarli shaklda yetkazish, mantiqiy fikrlash va tezkor xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish mumkin bo'ladi. "Zakovat" o'yini quyidagicha tashkil qilinadi:

Ishtirokchilar: 2-4 ta jamoa (har biri 5-6 o'quvchi), 7-11-sinf o'quvchilari.

O'yin tartibi: Har savol uchun 1 daqiqa muhokama, jamoalar yozma yoki og'zaki javob beradi, har bir to'g'ri javob uchun 1 ball. O'yin savollari tarkibi 5 ta turga bo'linadi.


1-tur: Tezkor savollar (qisqa va aniq savollar).

Namuna:

Imom G'azzoliy axloqning asosiy mezonini nima deb hisoblaydi?

(Javob: Niyat va qalb pokligi).

G'azzoliy fikricha, ilm nimaga xizmat qilishi kerak?

(Javob: Amal qilishga).

2-tur: Davomini toping

Mashhur fikr yoki hikmat davom ettiriladi.

Namuna:

Ilm amal bilan bezanmasa, u

(Javob: foydasiz).

3-tur: Vaziyatni tahlil qiling

Hayotiy holat beriladi.

Namuna:

Bir o'quvchi yolg'on gapirib jazodan qutuldi.

Savol: G'azzoliy qarashlariga ko'ra, bu holat qanday baholanadi?

(Javob: Yolg'on axloqiy nuqson, vaqtincha foyda bersa ham zararli).

4-tur: Topishmoq-savol

Mantiqiy va ramziy savollar.

Namuna:

U ko'rinmaydi, lekin insonni boshqaradi. U pok bo'lsa, inson ham pok bo'ladi. Bu nima?

(Javob: Qalb).

5-tur: Zakovat savoli (asosiy tur)

Murakkab savol, chuqur fikrlash talab etiladi.

Namuna:

Nega Imom G'azzoliy tarbiyada bolaga yoshligidan odob o'rgatishni muhim deb bilgan?

(Javob: Chunki bolalikda shakllangan xulq umr davomida saqlanadi.)

O'yin so'ngida g'olib jamoa diplom bilan taqdirlanadi, "Eng faol ishtirokchi" nominatsiyasi bilan jamoa ishtirokchilaridan biri taqdirlanadi, kitob va esdalik sovg'alari faol o'quvchilarga taqdim etiladi.

Zakovat savollari o'quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, yoshga mos bo'lishi kerak. Har bir savoldan keyin qisqa izoh berish foydali hisoblanadi. O'yinni jonli va qiziqarli olib borish muhim bo'lib, axloqiy xulosalar chiqarishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun Imom G'azzoliy ta'limoti asosida davra suhbatlari o'tkazish, seminarlar tashkil qilish, ma'naviyat soatlari va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish orqali ularda G'azzoliy hayoti va uning pedagogik boy merosiga qiziqishni uyg'otish mumkin. Shu bilan birgalikda, G'azzoliyning asarlariga bag'ishlangan kitobxonlik tanlovlari, insholar tanlovi o'tkazish, ilmiy konferensiyalar tashkil etib, ularda talabalarni G'azzoliy faoliyatiga oid ilmiy maqolalar tayyorlashga jalb qilish orqali G'azzoliy ta'limotini ommalashtirish mumkin.

Kitobxonlik tanlovlarini o'tkazish ham G'azzoliy hayotiga bo'lgan qiziqishni, uning asarlarini kitobxon o'quvchilar tomonidan o'rganishga bo'lgan talabni oshiradi. Kitobxonlik tanlovlarini maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida o'tkazish mumkin. Kitobxonlik tanlovlarini o'tkazishda, avvalo, tanlovning maqsad va vazifalarini belgilab olish lozim. So'ng G'azzoliy asarlaridan o'quvchilar yoki talabalar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati tuziladi. Ishtirokchilarning yakka yoki jamoaviy holda qatnashishi aniqlab olinadi va tanlov nizomi ishlab chiqiladi. Shuningdek, tanlov e'lonini berish, tanlovni rasmiylashtirish, hay'at tarkibini shakllantirish va baholash mezonlarini ishlab chiqish tanlovning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Tanlovni o'tkazishda baholash mezonlari ham muhim ahamiyatga ega. Sababi, tanlovni me'yoriy belgilangan mezonlar asosida baholash orqali uning xolis, adolatli va turli tushunmovchiliklardan holi tarzda o'tkazilishini ta'minlash mumkin. Baholash mezonlari quyidagilarni tashkil qilishi lozim:

birinchidan, o'quvchining asarni tushunish darajasi, ya'ni asar mazmun-mohiyatini qanchalik o'zlashtirganligi;

ikkinchidan, asar haqida to'g'ri fikr-mulohaza yurita olishi va o'z fikrini aniq tushuntirib bera olishi;

uchinchidan, nutq madaniyati, ya'ni matnni tushuntirishda adabiy tildan foydalanishga e'tibor berishi;

to'rtinchidan, mustaqil fikrlash darajasi; beshinchidan, asarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Asosiy tanlovni o'tkazish bosqichi 4 ta shart asosida amalga oshiriladi. Har bir shart uchun ishtirokchilarga ball berib boriladi. Bu shartlar quyidagilarni tashkil qiladi:

1-shart: Asar bilimdoni. Ishtirokchilarga test yoki og'zaki savol-javoblar orqali savollar beriladi.

2-shart: Mazmun tahlili. O'qilgan asardan qisqacha tahlil va G'azzoliy g'oyalarini sharhlash.

3-shart: Ijodiy chiqish. Insho, esse, sahna ko'rinishi yoki hikmatlarni hayot bilan bog'lash.

4-shart: Erkin fikr. "G'azzoliy ta'limoti bugungi kunda" mavzusida nutq.

Shartlar yakunida to'plangan ballar umumlashtirilib, g'oliblar aniqlanadi. G'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi, faol ishtirokchilar ham rag'batlantiriladi.

Bu kitobxonlik tanlovlarini tashkil etishning negizida, asosan, o'quvchi-yoshlarni ajdodlarimizning boy merosiga qiziqtirish, ularni insonparvarlik va axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yotadi. Shu bilan birgalikda, dissertatsiya mazmuniga mos ravishda, G'azzoliy qarashlarini zamonaviy pedagogikaga singdirish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Imom G'azzoliy hikmatlari asosida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini rivojlantirishga oid metodik qo'llanma ishlab chiqish orqali ham G'azzoliy qarashlarini bugungi hayotimizga tatbiq etish mumkin. Bu qo'llanma, asosan, G'azzoliy ijodiga qiziqqan barcha kitobsevar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda asosan G'azzoliy hikmatlari o'rin oladi.

Metodik qo'llanmani ishlab chiqishda G'azzoliy asarlarini ilmiy jihatdan o'rganish va nazariy tahlil qilish lozim. Asarlar tahlil qilingandan so'ng asosiy hikmat va g'oyalarni ajratib olish muhimdir. Ajratib olingan g'oyalar mavzulashtiriladi va ularning bugungi kundagi dolzarbligi asoslanadi.

Bu qo'llanmada shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini rivojlantirish maqsadi belgilanib, hikmatlarni tizimlashtirish, ularni pedagogik jihatdan izohlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari qo'yiladi.

Qo'llanmani ishlab chiqishda kirish, asosiy bo'limlar va xulosa qismlari inobatga olinib, bo'limlar rejalashtiriladi: ilm va ma'rifat, axloq va odob, ustoz va shogird munosabatlari, ota-ona va farzand munosabatlari. Har bir bo'lim hikmatlar, ilmiy-pedagogik izoh va hayotiy misol kabi qismlardan iborat bo'ladi. So'ngida qo'llanma mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqiladi, ilmiy tahrirdan o'tkaziladi va nashrga tavsiya etiladi.

Tayyor qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy darslarda foydalaniladi hamda kitob do'konlarida sotiladi. Mazkur dissertatsiyaning ushbu bo'limida Imom Abu Homid G'azzoliyning qarashlari maktabgacha ta'lim tizimi, umumiy o'rta ta'lim tizimi va bugungi zamonaviy hayotimizga uslubiy qo'llanmalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, "Kelajak soatlari", "Zakovat" intellektual musobaqalari, kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish hamda kitobsevar insonlar uchun metodik qo'llanmalar yaratish ko'rinishida tatbiq etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari bugungi pedagogika uchun beqiyos ahamiyatga ega. Uning bola qalbini "pok varaq" sifatida talqin qilishi, axloq va qalb pokligiga urg'u berishi, bosqichma-bosqich tarbiya g'oyasi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashadi.

G'azzoliy merosini maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimiga izchil joriy etish orqali yoshlarda nafaqat bilim, balki yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va milliy qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalash mumkin.

Kelgusida G'azzoliy pedagogik qarashlarini boshqa Sharq mutafakkirlari ta'limoti bilan qiyosiy tadqiq etish hamda uning samaradorligini empirik yo'l bilan o'rganish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imom Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din - Tavba kitobi - Movarounnahr 2003.
2. Imom Abu Homid G'azzoliy . Mukoshafat-ul qulub T.: "Adolat nashriyoti" 2002.
3. Imom Abu Homid G'azzoliy. Uylanish odobi T.: "Toshkent islom universiteti" 2009.
4. Imom Abu Homid G'azzoliy . Qiyomat va oxirat T.: "Movarounnahr" 2004.
5. Imom Abu Homid G'azzoliy. Oxiratnoma T.: "Movarounnahr" 2008
6. Imom Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din - Ilm kitobi T.: "Movarounnahr" 2007.
7. Imom Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din - Tafakkur kitobi T.: "Toshkent islom universiteti" 2007
8. Imom Abu Homid G'azzoliy. Til ofatlari T.: "Toshkent islom universiteti" 2011.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.